



**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI VA UNING
HUDUDIY VA TARKIBIY
BO'LINMALARIDA
KORRUPSIYAVIY
XAVF – XATARLARNI BAHOLASH
USLUBIY OTI**



Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti universitetga yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha qoidalarni belgilab beradi hamda universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari hamda korrupsiyaga joriy qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or xorijiy tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talabalar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xarqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti universitet faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlarni belgilash va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti rektorining
2023 yil 23 iyundagi
245-I/CH - sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash

USLUBIYOTI

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiyot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, ularning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga (keyingi o‘rinlarda-Universitet) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha qoidalarni belgilab beradi hamda universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

2. Quyidagilar universitet korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

Universitet faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali oldini olish choralarini ishlab chiqish.

3. Universitetdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quydagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish choralar (tadbirlar)ni, mas’ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o‘z ichiga belgilab olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur.

4. Universitetdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o‘zgarishi;

funksiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta’sir ko‘rsatuvchi universitetning ichki hujjatlari o‘zgarishi;

Universitet tuzilmasining funksiyalarini amalga oshirishida o‘ziga xos jihatlarining o‘zgarishi, yangi funksiyalarining yuklanishi;

Universitet funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

5. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul qilingandan so‘ng qoluvchi xavf-xatar (ya’ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan universitet nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash –universitet tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyatি;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi –universitedagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan va universitet funksiyalari va tartib-taomillarining umumiyo‘ ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va (yoki) olish yohud bunda vositachilik qilishda, rasmiyatichiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil –universitet funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma’lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo‘yicha bir guruhgа birlashtirish mumkin bo‘lgan harakatlar yig‘indisi;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan universitetning ichki jarayon (faoliyat yo‘nalishlari)laridan biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo‘yicha xodim yoki bo‘linmaning sub’ektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

o‘ziga xos xavf-xatar – Universitet faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari xususiyatidan kelib chiqadigan xavf-xatar, shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan

chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan holda (ya’ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda);

hududiy yoki tarkibiy bo‘linmaning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan hamda organ yoki muassasa funksiyalari va tartib-taomillarining umumiyo ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi hujjat.

6. Universitetdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan universitet rektori topshirig‘i asosida amalga oshiriladi. Universitet rektori topshirig‘ida baholashni o‘tkazish aniq muddatlari ko‘rsatiladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullarni jalb qilgan holda universitetda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiyo nazoratni amalga oshiradi;

universitetdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar, shuningdek universitet hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga mazkur Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibga rioya qilish bo‘yicha maslahatlar beradi;

universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi;

Universitet rektoriga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasini taqdim etadi;

hududiy va tarkibiy bo‘linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi asosida universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi;

universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi zarur hollarda tarkibiy bo‘linma rahbarlari va korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullardan qo‘sishma axborot va hujatlarni talab qilib oladi.

8. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korruptsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o‘tkazadi;

tarkibiy bo‘limning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta’minlaydi;

tarkibiy bo‘limning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta’minlaydi;

tarkibiy bo‘limda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotida ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar zarur hollarda tegishli universitet xodimlaridan qo‘shimcha axborotlarni talab qilib oladi.

2 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

9.Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni tegishli buyruqlar va ularda ko‘rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

10. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funksiyalar doirasida universitet xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o‘z ichiga oladi.

11. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tegishli hududiy va tarkibiy bo‘linmalardan tepaga (universitet darajasigacha), mazkur bobning 12-21 bandlarida ko‘rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

12. korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi ushbu Uslubiyotiga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo‘yicha universitetga ko‘rsatma yuborilishini ta’minlaydi.

Ko‘rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limiga taqdim etish muddatlari ko‘rsatilib, bu muddat yigirma besh ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

13. Universitetning tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilib korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi. Universitet tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bilan kelishiladi.

14.Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo‘linmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullari tomonidan ishlab chiqiladi va korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bilan kelishiladi. Tegishli rahbar kelishilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

15. Universitet tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimlari tegishli tarkibiy bo‘linmaga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so‘rov yuboradi. Bunda, so‘rovga javob so‘rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

16. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi xodimlari o‘z ekspertlik fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin.

17. Universitet korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tasdiqlangan sanadan boshlab, o‘n ish kunidan oshmasligi kerak.

19. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi universitet korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi taqdimnomasiga asosan universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

20. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar ushbu Uslubiyotining 2- ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini ishlab chiqadi.

21. Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar taqdimnomasiga asosan universitet Rektori tomonidan tasdiqlanadi.

22. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi ushbu Uslubiyotning 3- ilovasiga muvofiq Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan 10 (o‘n) ish kuni ichida ishlab chiqiladi.

23. Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan ishlab chiqiladi hamda universitet rektori tomonidan tadiqlanadi.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi

24. Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida universitet rektorining tegishli buyrug‘i asosida o‘tkaziladi.

Keyingi (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

25. Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 2-bobida ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

26. Har yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining hududiy va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida ushbu Uslubiyotga 4-ilovaga mos shaklda So‘rovnama yuboradi.

27. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, So‘rovnomalarni yig‘adi va tahlil qiladi.

4-bob. Universitetda amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi

28. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma’lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

universitetning funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va tashkilotning ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo‘linmalar, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari to‘g‘risidagi nizomlar va h.k.);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha monitoring natijalari;

odob-ahloq komissiyasi yig‘ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o‘tkazilgan so‘rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha tashkilotning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

Universitet faoliyatidagi huquqbazarliklarga oid statistik ma’lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojjatlari;

Universitet xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariiga rioya qilmaslik to‘g‘risida ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

29. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida universitetning har bir funksiyasi va tartib-taomili bo‘yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo‘yicha tahlil qilish lozim.

30. Har bir funksiya quyidagi shkala bo‘yicha baholanadi:
 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya;
 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo‘lgan funksiya.
31. O‘rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o‘ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko‘ra amalga oshiriladi:
 o‘ziga xos yuqori xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;
 o‘ziga xos o‘rta xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo‘lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;
 o‘ziga xos past xavf-xatarlar ko‘zda tutilmagan va universitetning Komplaens xizmatining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo‘llanilishi mumkin.
32. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshishining ehtimoli (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.1 jadvaldagi mezonlarga qarang) va korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat darjasini (mazkur Uslubiyotining 5-ilovasi 5.2 jadvalidagi mezonlarga qarang)ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalananib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyoti 5-ilovasidagi 5.1 rasm).

5-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralar

33. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:
 har bir chora universitet xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma’lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;
 har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas’ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

34. Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi (mazkur Uslubiyotning 6-ilovasi).

35. Universitedagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

36. Zarurat bo‘lganda, universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan universitet rektoriga takliflar kiritiladi.

Universitetda korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga
1-ilova

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi

Nº	Funksiya nomi	Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi(eng ko‘p moyil / eng kam moyil)	Funksiya doirasida bajarilayotgan tartib-taomil nomi	Tartib-taomilni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (lavozimi, bo‘linmasi)	Ehtimoliy korrupsiyaviy sxema (xavf-xatar)ning qisqacha ta’rifi	O‘ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar (yuqori/o‘rtal/past)	Mavjud nazorat tartib-taomillari / korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish ish choralar	Nazorat tartib-taomillari/korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy va ichki hujjatlar	Nazorat tartib-taomillari/korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul shaxslar (lavozimi, bo‘linmasi)	Qoldiq xavf-xatar darajasi (yuqori / o‘rtal / past)	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muddatlari	Izohlar (zarur hollarda)
1												
2												

1. fakultet
 - 1.1. kafedra nomi
 - 1.2. Boshqarma
 - 1.3. Bo‘lim
2. To‘ldirish uchun mas’ul
 - 2.1. FISh
 - 2.2. Lavozimi
 - 2.3. Bog‘lanish uchun (*elektron pochta, telefon*)

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universitetida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga
2-ilova

**Korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar
RO‘YXATI**

Nº	Fakultet, bo‘lim nomi	kafedra nomi	Lavozim (<i>funksiyalarini bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarni ko‘rsatgan holda</i>)
1.1.			
...			
2.1.			
...			

Universitetda korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
3-ilova

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi

№	Fakultet, kafedra va bo‘lim nomi	Korruptsiyaviy xavf-xatarni minimmallashtirish bo‘yicha choralar/tadbirlar/tartib-taomillar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas’ul ijrochilar (FISH, lavozimi)
1.1.					
1.2.					
...					
2.1.					
2.2.					
...					

Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 4-ilova

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tizimi bo‘linmalarini tasniflash bo‘yicha so‘rovnomasi

SHAKLI

Quyidagi savollarga javob bersangiz (*kerakligisini tagiga chizing*):

1. Korrupsiyaviy xavf-xatar so‘nggi marta baholangandan so‘ng qonunchilikda qandaydir o‘zgarishlar sodir bo‘lganmi? Agar javob ijobiy bo‘lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma’lumotlarni kiriting.

2. Tarkibiy bo‘linmangiz tomonidan bajariladigan tuzilma yoki funksiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda korrupsiyaviy xavf-xatar so‘nggi martta baholanganidan so‘ng qandaydir o‘zgarishlar sodir bo‘lganmi? Agar javob ijobiy bo‘lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma’lumotlarni kriting.

A) Ha B) Yo'q

3. Korrupsiyaviy xavf-xatar so‘nggi martta baholangandan so‘ng universitet faoliyati/tuzilmasida tarkibiy bo‘linmangiz tomonidan bajarilayotgan funksiyaga ta’sir qilgan/ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan qandaydir o‘zgarishlar yuz berdimi? Agar javobingiz ijobiy bo‘lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma’lumotlarni kiriting.

4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda ko‘zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ta’riflab bering. Agar amalga oshirilmagan yoki qismay amalga oshirilgan bo‘lsa, sababini yozing.

V) Oisman amalga oshirilgan

5.Universitet tizimi bo‘linmalarida funksiyalarni bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi? Agar javobingiz ijobiy bo‘lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma’lumotlarni kriting.

A) Ha

B) Yo‘q

Nº	Fakultet, bo‘lim nomi	kafedra nomi	Funksiyalar o‘zgargani sabablari	O‘zgargan funksiya ta’rifi	Funksiya doirasida bajarilayotgan yangi/o‘zgargan tartib- taomillar	Tartib-taomillarni bajarish uchun mas’ul shaxslar (FISH, lavozimi)
1.1.1.						
1.1.2.						
...						

Fakultet, kafedra _____

Bo‘linma _____

To‘ldirayotgan shaxsning lavozimi _____

To‘ldirayotgan shaxsning FISH _____

Imzo _____

To‘ldirish sanasi _____

5.1 jadval. Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini aniqlash mezonlari

Ehtimoli	Ta'rifi
Yuqori	<ul style="list-style-type: none">— O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori— Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi / sezilarli darajada kam-ko'stini to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi— Tartib-taomilni ichki hujjatlar yordamida aniq tartibga solinishi mavjud emasligi— Tartib-taomilni avtomatlashtirish mavjud emasligi/darajasi pastligi
O'rtacha	<ul style="list-style-type: none">— O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta— Tartib-taomil tartibga solingan, kam-ko'stini oz miqdorda to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlari joriy etilgan— Tartib-taomil tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas— O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan universitetning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazorat (universitet va uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarining nazorat qilinishi)ni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi— Tartib-taomil qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan
Past	<ul style="list-style-type: none">— O'ziga xos xavf-xatar darajasi past— O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi— Tartib-taomil to'liq avtomatlashtirilgan

5.2 jadval Korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat (*ta'sirchanlik*) darajasini aniqlash mezonlari

Oqibat darajasi	Obro‘ga putur yetkazish	Javobgarlik
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> — Xavf-xatar tashkilotning mamlakat va xalqaro miqyosdagi obro‘siga sezilarli ravishda putur yetkazadi 	<ul style="list-style-type: none"> — Universitet xodimlariga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atish uchun tegishli organlarga hujjat yuborish tashabbusi bilan chiqish
O‘rta	<ul style="list-style-type: none"> — OAVda salbiy hodisaning yoritilishi; — Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish; — xavf-xatar tashkilot obro‘siga mahalliy darajada putur yetkazadi. 	<ul style="list-style-type: none"> — Universitet xodimlariga nisbatan ma’muriy surishtiruv o‘tkazish uchun hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborish tashabbusi bilan chiqish
Past	<ul style="list-style-type: none"> — Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so‘rab alohida so‘rovlar tushishi mumkin 	<ul style="list-style-type: none"> — Universitet tizimi xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin

5.1 rasm. Qoldiq xavf-xatar darajasini aniqlash shakli

